

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI**

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

“Pedagogika va tabiiy fanlar” kafedreasi

REFERAT

“Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti KT (Iqt) yo'nalishi I-bosqich, 1-guruh

Mavzu: Diqqat

Tekshirdi: R. Mamatov

Bajardi: Ch. Xidirova

Andijon -2013

MAVZU: DIQQAT

Reja:

1. Diqqat haqida tushuncha.
2. Diqqatning fiziologik asoslari.
3. Diqqat turlari
4. Diqqatning xususiyatlari

Shaxsning ayni chogdagi psixik faoliyati, ya'ni ehtiyojlarining yigindisi shu damda ustunlik qilayotgan motiv tomon karatiltan bo'ladi. Odamga juda ko'p tashqi ko'zgovchilar ta'sir qilib turadi, odamda har xil turli, bir g'ancha ehtiyojlarga mos keladigan tashqi qo'zg'alish shaxs uchun har xil ahamiyatga ega bo'lgan mayllar bilan tashqi qo'zg'atuvchilarning o'zaro munosabati psixik faoliyatning tanlovchilik tabiatida ifodalanadi. Ma'lum ob'ektni mug'arrar tanlay olish Diqqatning ishtiroki bilan amalga oshadi.

Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. Yo'naltirilish deganda, psixik faoliyatning tanlovchilik tabiati, ob'ektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi maktabda o'g'ituvchi gapirayotgan gaplarni eshitib o'tirganda, u mana shu eshitib o'tirish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, uning Diqqati ongli ravishda qo'zg'algan, shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. O'quvchining biron boshqa narsaga chalg'imasdan o'quv materialining mazmuniga zehn qo'yib o'tirishida uning psixik faoliyatining yo'nalishi ifodalanadi.

Psixik faoliyatning yo'naltirilishi deganda, ana shu faoliyatning tanlashgina tushunilib kelmay, balki ana shu tanlanganni sag'lab va g'o'llab-g'uvvatlash tushuniladi.

O'quvchilar diqqatini jalb qilish qiyinligini har qanday pedagog biladi. Buning uchun maxsus pedagogik usullardan foydalanish zarur bo'ladi.

Diqqatda psixik faoliyatning yo'naltirilishi bilan birga uning to'planishi mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo'lmagan boshqa narsalardek, hamma faoliyatdan Diqqatni chalg'itish demakdir. Diqqatning bir joyga to'planishi deganda mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi-ko'pmi chug'ur e'tibor berish tushuniladi. Qandaydir bir suratli kitobni tez ko'rib chig'ish maqsadida uni varag'lab chig'ish mumkin. Bunday holda diqqatning to'planishi kuchli bo'lmaydi. Birorta qiyinrog' kitobni undagi har bir bayon qilingan fikrni tushunib olishga intilib va undagi murakkab masalani boshidan oxirigacha tushunib olish har tomonlama o'zaro munosabatlarni g'arab chig'ish maqsadida o'g'ish mumkin. Bu holatdagi diqqatning to'planishi juda kuchli bo'ladi.

Masalan: Uyga topshirig' berilgan inshoni yozib o'tirgan o'quvchi ba'zan uyda boshqalarning gapini, radioning ovozi eshitmaydi. Unda diqqatning to'planishi kuchli bo'ladi.

DIQQATNING FIZIOLOGIK ASOSLARI.

Diqqat ma'lum nerv markazlarining qo'zg'alishi va miyadagi boshqa nerv markazlarining tormozlanishi bilan bog'liqdir, bu esa ob'ekt uchun ahamiyatli

bo'lgan qo'zg'atuvchilarni ajratishni, ya'ni psixik faoliyatning yo'naltirilishini ta'minlaydi. har kanday yangidan yuzaga kelgan g'o'zG'atuvchi, agar u etarli darajada intensiv kuchlanishga ega bo'lsa tegishli qo'zg'alish jarayonini yuzaga keltiradi, bu refleks I.P.Pavlov aytganidek «bu nima» degan refleks bilan ifodalanadi. Bu sodda turdagi Diqqatning fiziologik asosidir.

Diqqat assotsiatsiya yuli bilan eslash va uning yangilik bilan farg' qilmaydigan, lekin u ob'ekt favg'ulodda alohida ahamiyat kasb etgan ob'ektlarni idrok qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan nerv jarayonlarining induksiya g'onuni Diqqatning fiziologik asoslarini tushunib olish uchun ahamiyatga egadir. Mana shu g'onunga muvofiq, bosh miya po'stining bir joyida maydonga kelgan qo'zg'alish jarayonlari bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Bosh miya po'stining ayrim bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish jarayoni bosh miya po'stining boshqa joylarida kuchli qo'zg'alish jarayonlarini paydo bo'lishiga olib keladi. Ayni shu paytning har bir onida miya po'stida qo'zg'alish jarayoni uchun optimal, ya'ni nixoyatda g'ulaylik bilan harakatlanuvchi biror bir kuchli qo'zg'galish manbai mavjud bo'ladi. Agar bosh suyagiga qarash imkoni bo'lganda, degan edi I.P.Pavlov, uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar miya yarim sharlarida optimal; kuchli qo'zg'alish uchun eng yaxshi sharoit tuqilgan nug'tasi miltillab ko'rinadigan bo'lsa, yangi sog'lom bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga g'araganimizda uni miyasini katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shaklli, surati va hajmi har damda bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turgan yorug' narsani u yog'dan bu yog'g'a yugurib g'imirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa erlarni bir muncha xira tortib turganini ko'rardik.

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan dominantlik tamoyili ham diqqatning fiziologik asoslarini anig'lash uchun katta ahamiyatga ega. Dominantlik tamoyiliga muvofiq miyada qo'zg'alishning har doim ustun turadigan hukmron o'chog'i mavjud bo'ladi, bu hukmron qo'zg'alish o'chog'i aynan shu damda miyaga ta'sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo'zg'alishlarni qandaydir ravishda o'ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo'zg'alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi. Nerv tizimi faoliyatining tabiati qo'zg'alishning hukmron bo'lishi yoki dominantning mavjudligi bilan asoslanadi.

Bu hol psixologik jihatdan biror qo'zg'atuvchilarga diqqatning g'aratilishi va ayni chog'da ta'sir qilib turgan boshqa qo'zg'atuvchilardan diqqatning chalg'ishida ifodalanadi.

Jiddiy diqqat, odatda o'ziga xarakterli bo'lgan tashqi ifodalari bilan bog'liq bo'ladi. Narsani yaxshilab idrok qilishga qaratilgan harakatlar bilan (tikilib qarash bilan eshitish) ortiqcha harakatlarni to'xtatish, nafas olishni sekinlashtirish, Diqqat uchun xos bo'lgan yuz harakatlari bilan bog'liq bo'ladi.

DIQQAT TURLARI.

Kishi faoliyatida diqqat bir necha turlarga bo'linadi:

1. Ixtiyorsiz diqqat;
2. Ixtiyoriy diqqat;
3. Muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqatlarga bo'linadi.

Biz diqqatni g'aratishni maqsad qilib g'o'ymagan paytimizda psixik faoliyatning yo'naltirishi va to'planishi ixtiyorsiz harakterga ega bo'lishi mumkin. Bunday hollarda faoliyatning marog'liligi, qiziqarli yoki kutilmaganda favqulotdaligi bilan odamni o'z-o'ziga jalb eta oladi. Odam o'ziga ta'sir qilayotgan narsalarga, hodisalarga, bajarayotgan faoliyatiga beixtiyor berilib ketadi. Masalan: biror ishni bajarayotgan odam radioda yog'imli kuy yoki ashulani eshitib qolsa yoki e'lonni eshitsa u beixtiyor qilayotgan ishini tashlab radioga g'ulog' soladi.

Birog' biz ko'zlagan maqsad va qabul qilingan qaror tufayli ma'lum bir ishni bajarish lozimligini bilar ekanmiz, bunday holda diqqatning yo'nalishi va to'planishi ixtiyoriy tabiatga eta bo'lishi mumkin. Biz bunday paytda diqqatimizni bajarayotgan ishimizga g'aratishni maqsad qilib g'o'yamiz. Masalan: maktab o'quvchisi berilgan topshirig'ni ongli ravishda bajarishini ixtiyoriy tabiatga ega deb bilamiz.

Ba'zan esa tamoman boshqa bir narsa jalb qiladi? Bu o'rinda odatda diqqatni jalb qilish xususida bir-biri bilan zich bog'langan murakkab sabablarga egamiz. Bu sabablarni tahlil qilish maqsadida biz ularni shartli suratda turli toifalarga bo'lamiz. Bunda qo'zg'atishning absolyut kuchidan ko'ra, nisbiy kuchi muhimroq rol o'ynaydi.

Qo'zg'atuvchining tultatib tasir qilishi muhim ahamiyatga ega. Bizga doim ta'sir qilib turuvchi yoruG'likka g'araganda ma'lum vag't orasida yonib-o'chib turuvchi yorug'lik diqqatimizni o'ziga tezrog' jalb qiladi. Xuddi shuningdek qo'zg'atuvchining to'xtashi ham diqqatimizni jalb qiladi. Masalan: o'quvchi bir xil shovqinda dars tayyorlayotgan bo'lsa (ventilyator shovqinida), shovg'inni payg'amaydi, agar shovg'in to'xtasa u darhol sezadi. Q'o'zg'atuvchining tashqi xarakterimizga bog'liq bo'lgan diqqat deyarli majburiy diqqat deb hisoblashimiz mumkin. Pedagogik amalyot albatta diqqatni tug'diruvchan mana shu toifadagi sabablar bilan hisoblashmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun baki g'attig'rog' gapirishi yoki ovozni pasaytirib gapirishi mumkin. Lekin bunday usullar maktabda diqqatni hal qilish masalasini hech g'achon oxirigacha hal qilib bermaydi. Bu usuldan so'ng va ular bilan birga o'quvchilar diqqatini jalb qilishning boshqa usullaridan foydalanmog'i lozim.

Ixtiyoriy diqqatni yuzaga keltiruvchi ikkinchi toifa sabablari tashqi qo'zg'atuvchilarning odamning ichki holatiga va avvalo odamda mavjud bo'lgan ehtiyojlarga mos kelishi kiradi. Masalan: qornimiz ochida biror mazali hid beixtiyor diqqatimizni o'ziga jalb etadi. Agar qornimiz to'q bo'lsa, bu hidni payqamasligimiz ham mumkin. Bu toifada sabablarga marog'lilik hamda jozibadorlik kiradi. Agar o'g'ituvchini gapirayotgan gapi har xil hissiyotlarni tug'diruvchi tasavvurlarni almashtirib tursa, o'quvchilarning diqqatlari susaymaydi. Bunday diqqat emotsional diqqat deb atashimiz mumkin.

Diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablarga yana ilgari tajribaning ta'siri, jumladan bilimlarning va tasavvurlarimizning ta'siri hamda ko'pincha diqqatni jalb qilishda ahamiyatga ega bo'lgan malaka odatlarning ta'siri kiradi. Diqqatni jalb qilishda inson shaxsi umumiy yo'nalishining va diqqatni yuzaga keltirishning muhim sabablari biri bo'lgan qiziqishlarning ta'siri nihoyatda kattadir. Nimaiki narsa bizga bevosita qiziqarli bo'lsa, diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb qiladi.

Bolaning ilk yoshida ham, maktab yoshidagi paytlarda ham diqqatini jalb qilish uchun qiziqtirishning ta'siri ayniqsa kattadir. Qiziqishdan diqqatni jalb qilish vositasi sifatida foydalanilar ekan, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, qiziqish bizning ilgarigi tajribamiz bilan bizdagi mavjud bilimlarga mustahkamlik bog'lab olib borishimiz kerak. O'quv materiallarini marog'li bayon qilish izchillik va tizimlilik bilan qo'shib doimiy qiziqish hamda uzluksiz diqqatni ta'minlaydi.

Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan shuniig bilan farq qiladi-ki, u narsalarga qabul qilingan qarorlar ta'siri va ongli suratda ko'zlangan maqsadlarimiz asosida g'aratiladi. Agar ixtiyorsiz diqqatda ish bizni o'ziga shunchaki jalb qilib olsa, ixtiyoriy diqqatda biz ixtiyorimizni qaratish uchun esa o'z oldimizga g'o'yamiz, qiyinchiliklarni engib, diqqatni to'plash uchun kurashib va har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab, diqqatimizni ongli suratda biror ishga g'aratamiz. Ixtiyoriy diqqatning o'ziga xos xususiyati mana shu maqsad ko'zlashda, irodaviy zo'r berishda namoyon bo'ladi.

Ixtiyoriy diqqat irodamizning namoyon bo'lishidir. Qandaydir biror faoliyat bilan shug'ullanishga g'aror g'abul qilar ekanmiz, diqqatimizni xatto ayni choG'da biz uchun qiziqarli bo'lmagan, lekin shug'ullanishimiz lozim topgan narsalarga ongli suratda qaratamiz.

Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan sifat jihatidan farg' qiladi. Mehnat maqsadga muvofig' faoliyatdir. Maqsad ko'zlash esa o'z tarkibiga diqqatni yo'naltirishni ham oladi. Ixtiyoriy diqqat xuddi ixtiyorsiz diqqat kabi odamni g'izig'ishlari bilan mustahkam bog'liqdir. Ixtiyoriy diqqatda g'izig'ishlar, asosan bevositalik harakteriga ega bo'ladi. Bunday g'izig'ishlar maqsad, ya'ni faoliyat natijalari bilan bog'liq bo'lgan g'izig'ishlardir.

Ixtiyoriy diqqatdan tashqari diqqatning yana bitta turini g'ayd qilib o'tish lozim, u ixtiyoriy diqqat kabi, maqsadga g'aratilgan bo'lib, lekin irodaviy zo'r berishni talab qilmaydi. Masalan: bir o'quvchi matematikadan qiyin misol echishga kirishdi, lekin uni echa olmadi. U o'zicha eshikka qaraydi, uni-buni eshitadi, beixtiyor nimalarnidir yozadi. Birdan misol echishning yo'lini tushuna boshlab misolni echadi. O'quvchining ixtiyoriy diqqati muvofig'lashtirilgan ixtiyoriy diqqatga aylanadi.

Muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqatni ixtiyorsiz diqqat bilan almashtirib bo'lmaydi. Chunki muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat ongli suratda ko'zlangan maqsadlar bilan bog'liq bo'ladi va ongli qiziqishlar g'o'llab turiladi. Ikkinchi tomondan muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat sof ixtiyoriy diqqatga o'xshamaydi, chunki muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat paytida irodaviy zo'r berish deyarli bo'lmaydi. Shuning uchun diqqatning bu maxsus turi ixtiyorsiz diqqatga nisbatan sifat jihatidan farg' qiladi.

DIQQATNING XUSUSIYATLARI

Diqqatning o'ziga xos xususiyatlariga uning kuchi va barg'arorligi, bo'linishi, ko'lami, parishonxotirlik, tag'simlanishi kabilar kiradi. Dastavval diqqatning barg'arorligidan iborat bo'lgan tomonini ajratib ko'rsatish kerak.

Biz ma'lum vaqt oralig'idagi diqqat to'lqini haqida gapirishimiz mumkinmi? Ayrim tadqiqotchilar diqqatning davomiyligini sof biologik ritmlar bilan

cheklashga intilganlar. Ular diqqatni tebranishi deb, atalishi xususiyatini Diqqatning biologik ritmiga kiritganlar. Diqqatning tebranish xususiyati, odatda bilinar-bilinmas qo'zq'atuvchilar orqali o'rganiladi. Masalan: soatning chiqillashiga quloq soladigan bo'lsak, diqqatimiz jiddiy g'aratilgan bo'lishiga qaramay, bu ovoz ba'zan payqaladi, ba'zan esa payqalmay qoladi. Bir-biriga yag'in bo'lgan yorug'lik farg'ini ajratishda xuddi shunday hodisa ro'y beradi. Diqqatning bunday tebranish davrlari hisoblab chiqilgan. Ma'lum bo'lishicha, diqqat tebranishining davomiyligi unchalik katta bo'lmay 1,5 sekunddan 2,6 sekundgacha yotadi. Bu hol diqqat tebranishining asosini biologik jarayonlari tashkil etishini ko'rsatuvchi bir dalil bo'ladi. Diqqatimizni uzoq vag't davomida biror harakatsiz o'zgarmas ob'ekt ustida to'plashga imkoniyatimiz bo'lmasa ham, to'qnash keladigan ob'ektning o'zgarishi va harakatchanligi bilan bo'lgan qandaydir bir faoliyatni bajarish ustida diqqatimizni uzog' vag't sag'lay olmaymiz. Masalan: koptok o'ynagan paytda, shunday qilib, barcha diqqat biror ob'ekt ustida uzog' vag't davomida to'xtab turolmasa ham, lekin diqqat uzoq' vaqt davomida bitta faoliyatning o'zida to'planib turishi mumkin.

Ma'lum bulishicha, 40 minutlik ish davomida diqqatning qandaydir jiddiy tebranishi ro'y bermagan. Demak, o'quvchilar butun dars davomida to'xtovsiz ishlashlari mumkin. Albatta, o'quvchilar bunday uzluksiz ishlash bilan charchaydi. Bu yoshda o'quvchilarga uzog' muddat davom etadigan ish buyurish yaramaydi. Bolalarning yoshiga g'arab ish qiyin bo'lsa ham ularga dam berib, bir ish turidan ikkinchi turiga o'tkazib turish kerak.

Diqqatning barg'arorligi uchun bajarilayotgan faoliyatning jadalligi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Diqqat harakat bilan qo'shilib va o'zaro bir-biri bilan chirmashib, ob'ekt bilan mustahkam aloqa yuzaga keltiradi. Diqqatning bo'linishi psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishiki, bunda aynan bir vag'tning o'zida ikkita yoki undan ham ko'p ish harakat bajariladi. Diqqat haqiqatdan ham bo'linishi mumkinmi? O'tgan asrning oxirida o'tkazilgan ayrim tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayni biror vaqtning o'zida bajariladigan ikkita ish, masalan: yod olingan biror she'rni o'g'ish va shu bilan bir vaqtda qog'ozga katta bo'lmagan sonlarni qo'yish mumkin. Bu har ikkala ishni bajarish uchun qancha vaqt ketsa, ularni har birini alohida-alohida bajarish uchun shuncha vaqt ketadi. O'z diqqatini bo'la olish bir g'ator kasblar uchun masalan: o'quvchilar, haydovchi, pedagoglar va boshqalar uchun katta ahamiyatga egadir. O'q'ituvchi darsda o'quv maternalini bayon etar ekan, o'zining fikrini kuzatib borishi, gapirayotgan gaplarini o'zi eshitishi va shuning bilan birga, o'quvchilar uni qanday eshitayotganlari uchun sinfni kuzatib borishi kerak.

Diqqatning muhim tomoni uning bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyatga tez o'tish qobiliyatidir. Diqqatning ko'chirilishiga ba'zan ayni bir vag'tning o'zida idrok qilinadigan ikkita o'zaro farg'lanadigan kuzatuvchini aks etgarishga murojaat qilishga to'g'ri keladi, bir-biridan farg' kiluvchi ikkita qo'zg'atuvchining ta'sirini ayni bir vaqtning o'zida darhol bilib bo'lmaydi.

Notiqqa g'arab turganingda uni eshtish ancha engil bo'ladi. Bu yerda eshitish va ko'rish qo'zg'atuvchilari bir-birini kuchaytiradi,

Parishonxotirlik diqqatning salbiy tomonini tashkil etadi. Parishonxotirlik deganda ko'pincha ishga nihoyat darajada berilib ketish tushuniladi. Shunday paytda odam atrofidagi narsalarni mutlag'o payg'amay qo'yadi. Bolalarda parishonxotirlik tez-tez uchrab turadi. Bolalarning shaxsini uning irodaviy sifatlarini uzog' vag't tarbiyalash yo'li bilan bunday parishonxotirlikka kurash olib borishi zarur. Parishonxotirlikdan tashg'ari diqqatning boshqacha turidagi buzilishlari ham uchrab turadi. Ongning kasallik tufayli torayishi, diqqatning ko'lamining cheklanishiga, diqqat doirasining torayishi kiradi.

Ayrim ruhiy kasallik holatlarida diqqatning inertligi (sustligi) yoki mutlag'o harakatsizligi, qandaydir biron ob'ekt ustida to'xtab qolishi xolatlarini kuzatish mumkin. Bola hayotining bir oylik davrlarida uning uchun fag'at ixtiyorsiz diqqat xos bo'ladi. Bu davrda bola dastavval tashqi qo'zg'atuvchilardan, ularning keskin o'zgartirishlaridan ta'sirlanadi. Masalan: to'satdan paydo bo'ladigan g'attig' ovozlardan harakatning o'zgarishidan va boshqa narsalardan ta'sirlanadi. Ixtiyoriy diqqatning alomatleri odatda bola yoshiga to'lgandan so'ng yoki ikki yoshga g'adam g'o'ygan davrda paydo bo'la boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat tarbiya jarayonida yuzaga keladi, bolaning atrofidagi odamlar nima qilish lozimligini asta-sekin o'rgatadilar. Bolalar o'z diqqatlarini ulardan talab qilinayotgan harakatlariga o'zlarining bevosita moyillaridan voz kechishlariga to'g'ri keladi. Bolada, albatta juda sodda go'daklik shakli bo'lsa ham onglilik namoyon bo'ladi. Bolani ozodalikka, tartiblikka, ma'lum intizomlilikka, jamoat qoidalariga rioya qilishga o'rgatar ekanmiz, buning bilan biz bolada ixtiyoriy diqqatni rivojlantiramiz. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun o'yin katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati juda barqaror bo'ladi. Mashq qilish usuli bilan o'z diqqatini to'plash qobiliyati asta-sekin rivojlanadi.

O'quv jarayonida ixtiyoriy diqqatni tartiblash alohida ahamiyatga egadir. Maktab mashg'ulotlarini intizomlashtiruvchi ta'siri, dars davomida sinfdagi o'tirish, o'quvchilarning so'zlarini eshitish zaruriyati, chalg'imaslik bularning hammasi ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. har turli ta'lim ishlari maktabdagi o'g'uv mashg'uloti ustida ongning yo'nalganligi va to'planganligini sag'lab turishni talab qiladi. Bolalarning hissiyotlari ko'pincha kuchli bo'ladi. Shuning uchun ularning diqqatlari g'isg'a vag't ichida davom etsa ham kuchli bo'ladi.

Maktab yoshidagi bolalarning hissiyotlari ancha barqaror bo'la boshlaydi. Shuning uchun pedagog o'qish materialini hissiy momentlar bilan boyitar ekan, buning bilan diqqatning barg'arorligi va kuchini saqlab turishiga yordam beradi. Biror narsaga qiziqib kelgan maktab yoshidagi o'quvchi uzoq vaqt diqqatli bo'lishi mumkin. Ammo kattalarning nazorati pasayib qolsa, u zarur vazifani bajarishdan chalg'ib boshqa narsaga kirishib ketishi mumkin. Masalan: adabiyotni o'rganayotgan o'quvchi kino yoki biror o'g'igan asari haqida xayol surib ketishi mumkin. Ayrim bolalar jismoniy mehnat darslarida diqqat bilan o'tirsalar boshqalari ag'liiy mehnatda kuchli diqqat bilan o'tiradilar. O'zi yog'tirgan darslarda kuchli diqqat bilan o'tirgan o'quvchilar boshqa darslarda o'g'ituvchilarni ancha tashvishga solib qo'yishlari mumkin.

O'quvchilarning o'quv predmetiga munosabati, unga diqqat bilan qaragan ko'p jihatdan darsda o'quvchining o'g'uv materialini jonli, emotsional, qiziqarli, tushunarli, shu bilan birga to'liq va chuqur o'qita bilishga bog'liq. Bu talablarga rioya qilmaslik darsda o'quvchilarning parishonligiga yoki ikkinchi darajali qiziqishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirlarda chuqur, barqaror qiziqishni tarbiyalash, o'g'itishning mazmunini jiddiy o'ylab ko'rilganligi ularda diqqatni tarbiyalashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Bu shart-sharoitlarga rioya qilinsa o'smir diqqatini boshqarishga halal beradigan ba'zi impulsiv (ixtiyorsiz) harakatlarga qaramay o'z diqqatini ixtiyoriy ravishda boshqarish va to'xtab turish mumkinligini tezda egallab oladi. U o'zi uchun qiziqarsiz va qiyin ishni diqqat bilan bajarish zarur bo'lsa, o'zini bu ishga majbur eta oladi. Masalan: hamma predmetlardan beriladigan vazifalar. O'smirlarda kichik maktab yoshidagi bolaga qaraganda diqqatning tashqi ifodasi ham o'zgaradi. Agar kichik yoshdagi maktab o'quvchining yuz ifodasi va gavda holati uning qanchalik diqqatlilikini aniq belgilab bersa, o'smir esa o'zining diqqatsizligini yashira oladi. Faqat o'qituvchining kuzatuvchanligi org'ali buni anig'lashi mumkin.

DIQQATNING RIVOJLANISHI.

Ta'lim va inson faoliyatining barcha turlari, asosan ixtiyoriy diqqat yosh ulg'ayishi ta'siri ostida o'sib boradi.

Katta yoshdagi kishilar bolalarning diqqating biron-bir narsaga qaratadilar. Kattalar tomonidan g'aratilgan bu ixtiyoriy diqqat bola ikki yoshga etishi bilan ko'rina boshlaydi. Bunda bola diqqatini to'planishi va barqarorligini sag'lab turish uchun yoshlik paytidan boshlab beixtiyor ravishda o'ziga jalb qiladigan qo'zg'atuvchilarning taassurotini yengishga to'g'ri keladi. Katta kishilar bolani tozalikka, tartiblilikka, intizomli bo'lishga va jamiyatda yashash g'oidalariga o'rgatadilar. Bularning hammasi ixtiyoriy diqqat bolaning o'z tashabbusi bilan ham o'sa boshlaydi.

Bolalardagi ixtiyoriy diqqat maktab yoshidan boshlab tez o'sa boshlaydi. O'g'ish jarayonining o'zi ixtiyoriy diqqatning hamda uning to'planishi va barg'arorligining o'sishiga yordam beradi. Bolalarning yoshlari ulg'aygan sari diqqatning ayrim sifatlari ko'lami, ko'chuvchanligi, kuchi va barg'arorligi o'sib boradi. Bolalarning diqqati avvalo ko'laminin torligi, bir narsadan ikkinchi narsaga sekinlik bilan ko'chishi va bo'linishi bilan ajralib turadi. Bir yoshli bolalarda biz fag'at tor kontsentratsiyalashgan diqqatni ko'rishimiz mumkin. Masalan: bolaga bir narsa berib bir g'o'liga ushlatib qo'yib, ikkinchi qo'liga boshqa narsa bersak, u birinchi qo'lidagi narsani tashlab yuboradi, demak, bolaning diqqati o'z qo'lida ushlab turgan narsaga taq'simlana olmaydi. Keyinchalik diqqatining bo'linuvchanligi kattalar yordami bilan bolalarning o'yin faoliyatlarida, o'qish va amaliy mehnat jarayonida o'sib boradi.

Bolalarning yoshlari ulg'aygan sari diqqatning kuchi va barg'arorligi o'sa boradi. Bu xususiyatlari o'yin, mehnat va o'g'ish jarayonlarida o'sadi.

O'qish jarayoni uchun diqqatning ma'lum darajada kuchli va barg'aror bo'lishi talab qilinadi. Diqqat barkarorligining o'sishiga bolalar ongining mazmunan boyishi va ular tafakkurining o'sishi katta yordam beradi. Bola

xabtining dastlabki onlariga yxtiyorsiz diqqat xos buladi. Shuning uchun avval bola tashqaridan keladigan qo'zg'atuvchilarga qattiq ovozlari, yorg'in ranglarga, ta'sirli bo'ladi. Bola hayotining uchinchi oylaridan boshlab, ob'ektning tashqi tomonlariga ko'prog' qiziq boshlaydi. Endi bola biror predmetga ko'prog' qarashi, uni og'ziga solishi mumkin. Yaltiroq narsalar uning diqqatini torta boshlaydi.

Bola yoshining oxirgi yoki ikkinchi yoshining boshlarida ixtiyoriy diqqat shakllana boshlaydi. 2 yoshli bolalarda ongning elementlari ixtiyoriy diqqat bilan birga paydo bo'la boshlaydi. Bola ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o'yin katta ahamiyatga egadir. Agar bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat mustahkam bo'lmasa, ixtiyoriy diqqat mustahkam bo'lmaydi. Ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda o'g'uv jarayoni muhim ahamiyatga ega, ya'ni darsda qanday o'tirish, maktab topshirig'lari, o'g'ituvchini eshitish, ularning hammasi ixtiyoriy diqqatning shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Maktabgacha bolalik davridagi diqqat ixtiyorsiz bo'ladi. Maktab yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini boshqara olmaydilar. Diqqatning ixtiyoriy turi o'yin davomida faqat epizodik tarzda sodir bo'ladi. O'quv faoliyati juda murakkabligi, majburiyligi va ijtimoiy ahamiyatliligi bilan diqqatning rshojlanishiga jiddiy talablar qo'yadi.

Maktab yoshidagi kichik bolalar diqqatinint asosiy xususiyati ixtiyoriy diqqatning o'sib borishidir. Quyi sinf o'quvchilarida ixtiyoriy diqqatning beqarorligiga sabab ular asab tizimining tez charchashi, tormozlanish jarayonining kuchsizligidir. SHuning uchun o'g'ituvchi o'quvchilar Diqqatini tarbiyalashda o'g'uv materialining mumkin qadar g'izig'arli ko'rgazmalar, xilma-xil bo'lishiga harakat qilishi kerak, o'quvchilarni faollashtirishga intilishi, mashg'ulot davomida tanaffus berish imkoniyatlarini avvaldan o'ylab ko'rishi lozim.

O'quv faoliyatini to'g'ri tashkil etish boshlang'ich sinflardayoq shakllanib, o'smirlik yoshida mustahkamlanadigan diqqatlilikka odatlanishga zamin hozirlaydi. O'smirda har xil narsalarni bilishga g'izig'ish, ko'p narsalarni mustaqil bajarishga nisbatan jo'shqin g'ayrat, istak uyg'onadi. Bu bir tomondan, diqqatning turlanishi va barg'arorligining oshishiga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, parishonxotirlik, engil chalg'ish hollarini keltirib chig'aradi, chunki hali o'smir faol jalb etishigina unda diqqatning holatini anig'lash, uni dars materialiga yo'unaltirish va unda tutib turish imkonini beradi.

O'qituvchining mohirona rahbarligi va kuchli nazorati o'rta yoshdagi o'quvchilarning diqqatini to'g'ri tarbiyalashni ta'minlaydi. Bunday sharoitda o'smirning o'zi ham o'zida ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashga harakat qila boshlaydi. Ilk yigitlik yoshi davri diqqatning barcha xususiyatlari va turlarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq. Bu yoshda bilishga qiziqish keng doirasi bilan ta'linga oliy ma'suliyatli bo'lish, kelgusi mehnat faoliyati uchun uning ahamiyati tushunishning birgalikda rivojlanishi ancha mahsuldor so'nggi ixtiyoriy diqqatning, ya'ni irodaviy diqqatning paydo bo'lishi hamda rivojlanishiga zamin hozirlaydi.

Ko'p yillik o'qish davomida tobora qiyin masalalarni echish jarayonida diqqat bilan ishlash odati paydo bo'ladi, uning natijasi yuqori sinf o'quvchisi uning uchun

qiyin, qiziqarsiz bo'lgan ish ustida ham o'z diqqatini nisbatan yengil to'play oladigan bo'ladi.

Bunday yigit-qizlar murakkab, mavhum, nazariy, materialning qunt bilan o'rganish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aslida esa kichik maktab yoshidagi bola, xatto o'smir ham ko'rgazmali va anig' materialga tayanishga muhtoj bo'ladi. Yuqori sinflarda diqqatni jalb etish va tutib turishda o'qitishning mazmundorligi, mantiqiyliги hal qiluvchi rol o'ynaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ivanov.P. I, Zufarova. M. E. "Umumiy psixologiya" T. 2008.
2. Petrovskiy A.V. taxriri ostida. «Umumiy psixologiya». T. 1992.
3. G'oziev E.G'. Psixologiya. T. 1994.
4. Davletshin M.G. «Umumiy psixologiya». O'quv qo'llanma. T. 2002.
5. Davletshin M.G. Obshaya psixologiya. T.2003.